

10-SINF O‘ZBEK TILI FANI IV CHORAK

BSB-4 (Loyiha ishi– 50 ball)

Loyiha ishi mavzusi: Men yaratgan mahsulot.

Bosqich	Baholanadigan ko‘nikma	Namuna
1	Mavzu bo‘yicha maqsad qo‘yish va rejalashtirish.	Kichik guruhlarda “Men yaratgan mahsulot” mavzusida insonlarga foydasi tegadigan o‘z mahsulotini ishlab chiqish bo‘yicha maqsad va rejangizni ishlab chiqing
2	Reja asosida guruhlar o‘z vazifalarini bo‘lisha oladi.	Tuzilgan reja asosida kichik guruhlarda bajaradigan vazifalaringizni taqsimlab oling va vaqtni belgilang.
3	Berilgan mavzu bo‘yicha izlanadi, kuzatadi, ma’lumot to‘playdi, mahsulotni yaratadi, unga logotip o‘ylab topadi va yakuniy xulosaga keladi.	Ishlab chiqargan mahsulotingizga logotip o‘ylab toping (firma brendi yoki shu tovarni gavdalantiruvchi belgi, muhr)
4	O‘z mahsulotini reklama qila oladi, og‘zaki va yozma fikrlay oladi. Shuningdek imlo qoidalariga amal qilgan holda fikrini aniq va ravon yetkazib bera oladi.	Mahsulotingizni xalqqa tanitish uchun reklama ishlang (matn, matnli taqdimot yoki matnli video bo‘lishi mumkin)
5	O‘z mahsulotini reklama qilish, boshqalar bilan o‘z aro aloqaga kirishish, suhbatlashish, fikrini aniq va ravon yetkazib bera olish ko‘nikmasini rivojlantiradi.	Maktabda tashkillashtirilgan yarmarkada qatnashing va iloji boricha mahsulotingiz uchun xaridorlardan ko‘proq ovoz to‘plang.
6	Bajarilgan ishlar hisobotini bera oladi. Yakuniy xulosa chiqara oladi.	Mahsulot uchun ketgan mablag‘ni hisoblang chiqing. O‘z mahsulotingizga baho bering.

**10-sinf o‘quvchilari(loyiha ishtirokchilari) ishtirokida maktab yo‘laklarida yarmarka tashkillashtiriladi va “xaridorlar” o‘quvchilar tayyorlagan mahsulotlarning logotipi, reklamasiga qarab “sotib oladi”(ya’ni jeton orqali o‘zi yoqtirgan mahsulotiga ovoz beradi). Bunda har bir xaridor faqat 1 mahsulotga ovoz bera oladi*

O'qituvchi uchun tavsiya: O'quvchilar uchun berilgan topshiriqlarga vaqtlarni belgilab berishingiz kerak.

O'quvchi taqdimotlari rasmga va tasvirga olinsa maqsadga muvofiq.

Loyiha ishini baholash mezonlari:

№	Baholanadigan ko'nikma	Maksimal ball	Diskriptorlar	Jami to'plan- gan ball
1	Mavzu bo'yicha maqsad qo'yish va reja tuza olish.	5	«Men yaratgan mahsulot» mavzusida o'quvchilarning kichik guruhlarda odamlarga foydasi tegadigan mahsulotni ishlab chiqish bo'yicha maqsadini belgilagan bo'lsa – 3 ball, Rejani to'g'ri tuzgan bo'lsa – 2 ball.	
2	Kichik guruhlarda o'z vazifalarini to'g'ri taqsimlashi va mahsulotni yarata olishi	5	Mahsulotning kreativligi – 3 ball,. Sifati, tashqi ko'rinishi talab darajasida bo'lsa – 2 ball.	
3	Berilgan mavzu bo'yicha izlanishi, kuzatuv, ma'lumot to'plashi, unga logotip topishi.	10	Logotipning betakrorligi – 3 ball. Milliyligi – 4 ball. Mahsulotni gavdalantirishi – 3 ball.	
4	O'z mahsulotini reklama qila olishi, og'zaki va yozma fikrlay olishi. Shuningdek, imlo qoidalariga amal qilgan holda fikrini aniq va ravon yetkazib bera olishi.	10	Reklama matni mazmuni – 5 ball. Imloviy va uslubiy tarafdin to'g'ri yozilishi uchun – 5 ball.	
5	Fikrini aniq va ravon yetkazib bera olishi.	10	Yarmarkada o'z mahsulotini reklama qilishdagi faolligi– 5 ball. Xaridorlar bilan suhbatlashishi va o'ziga jalb qilishi – 5 ball.	
6	Bajarilgan ishlar hisobotini bera olishi,		Chiqimlar va sof foydaning aniq ko'rinishi– 5 ball.	

	yakuniy xulosa chiqara olishi.	10	Kelajak rejalarining namoyon bo'lishi – 5 ball.	
Jami		50		